



**“Shashka doskasida” didaktik o’yinini tashkil
etish va o’tkazish bo'yicha
metodik tavsiyalar**

Maktabgacha ta'lim
vazirligi

Hurmatli ota-onalar va tarbiyachilar!

“Shashka doskasida” didaktik o’yini bolalarda mantiqiy fikrlashni, ziyraklikni, og’zaki nutqni rivojlantirib, guruh bo’lib ishlashga o’rgatadi.

Ushbu didaktik o’yin maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirib, aniqlash, tanlash, o`z tanlovini tushuntirish ko`nikmalarini hosil qiladi.

Shuningdek, bolalarda bu o’yin fikrlash, ko’rish, eslab qolish va e’tiborli bo`lish kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

O`yining vazifalari:

1. So`z boyligini oshirish va bog`lanishli matn tuzishni o`rgatish, olgan bilimlarini mustahkamlash;
2. Predmetning asosiy sensor xususiyatlari: rangi, shakli, katta-kichikligi haqida tushuncha berish;
3. Geometrik shakllar bo`yicha bilimlarni shakllantirish;
4. Qo`llarning mayda motorikasini rivojlantirish;
5. Mulohaza yuritishga o`rgatish;
6. Bolalarda tashkilotchilik va kommunikativ malakalarini shakllantirish;
7. Jamoada va kichik guruhlarda o`zaro muloqatda bo`lish malakasini rivojlantirish.

Yosh toifasi: 3-6 yoshli tarbiyalanuvchilar.

O`yinda ishtirok etadigan bolalar soni:

- 2 nafar (“Shashka” o’yinida);
1 nafar (“Manzilingni top” o’yinida);
4 ta guruhgacha (“Kim birinchi” o’yinida).

O`yin to`plami:

1. 1 ta shashka doskasi.
2. 12 ta oq va 12 ta qora shashka donachalari (birinchi to’plamda).
3. 15 ta to’g’riga, 7 ta chapga, 7 ta o’nga belgisi tushirilgan kartochka fishkalar.
4 ta qora bombachalar, 4 ta qizil dinamit, 4 ta qasr, 1ta daraxt, 1 ta uy, 1ta oshxona rasmi, 1 ta MTT logotipi aks ettirilgan kartochkalar (ikkinchi to’plamda).
4. 3 ta katta xar hil rangdagi doiralar, 40 ta turli xil rasmlar tushirilgan kartochkalar (uchinchi to’plamda).

O`yinga tayyorgarlik:

O`yin boshlashdan oldin bolalarga ko`rsatma berish. Bolalarni quyidagilar bilan ogohlantirish lozim:

- O`yinda ehtiyot bo`lish;
- Qog`oz shakllarni og`izga solmaslik;
- O`yin kartalariga rasm chizmaslik va bukmaslik;
- Do`stona munosabatni saqlash.

O`yin tavsifi: Bu o`yin ta`limni o`yin shaklida tashkil etish va “Qurish va konstruksiyalash”, “Til va nutq” rivojlantiruvchi markazlari uchun mo`ljallangan. O`yin o`quv jarayonini xilma-xilligini va o`zlashtirish samaradorligini oshirish, bola atrofdagi olamni tushunishi va ma'lumotga ega bo`lishiga qaratilgan. Bolalarni sinchkovlikga, predmetlar xususiyatlarini solishtirish va farqlay bilishga o`rgatadi.

Ushbu didaktik o`yinni tashkil qilish:

“Shashka doskasida” didaktik o`yini to`plamida **uch turdag'i o`yinni** tashkil etish mumkin:

1. “Shashka” o`yini;
2. “Manzilingni top” o`yini;
3. “Kim birinchi” o`yini.

“*Shashka*” o`yinida ikki nafar bola ishtirok etadi. Bir taraf oq, ikkinchi taraf qora donachalar bilan navbatma-navbat yurish orqali o`ynaydilar.

“*Manzilingni top*” o`yinida bir nafar bola ishtirok etadi. Asosiy maqsad manzilga yani uy, daraxtzor, oshxona va maktabgacha ta`lim tashkilotiga yetib borish hisoblanadi. Shashka doskasining istalgan to`rtta katagiga manzillar, yana uchta istalgan katakga qora bombacha, qizil dinamit va qasr aks ettirilgan kartochka fishkalar joylashtiriladi. Manzilga bosqichma bosqich to`g'riga, o'ngga, chapga degan belgilar orqali xavfsiz yo'lni tanlab harakatlanib boriladi. Yo`lda qora bombacha va qizil dinamitga duch kelgan holda yana boshidan harakatlanadi. Agar qasrga duch kelsa harakatlanishda davom etadi. Shu tariqa o`z manzillarini topadilar.

“*Kim birinchi*” o`yinida to`rtta guruh ishtirok etadi. Shashka doskasining birinchi qatoriga to`rtta kartochka fishkalar joylashtiriladi. Har bir guruh navbatma-navbat yuradi. Har bir yurishdan so`ng uch xil rangdagi doiralardan biri tanlanadi. Guruh a'zolaridan biri doiralardan birini tanlangandan so`ng, tarbiyachi tomonidan turli xil rasmlar tushirilgan kartochkalardan biri ko`rsatiladi. Guruh a'zolari esa doiradagi shartni bajaradi. Doiralarda to`q sariq rang “So'zsiz harakat bilan ko`rsating”, och yashil rang “Chizing” va feruza rang “Nomini aytmasdan so'zlab bering” ma`nosini anglatadi.